



## MAMLAKATIMIZDA INVESTITSION MUHITNING JOZIBADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

**Shadiyeva Gulnora Mardiyevna**  
SamISI real iqtisodiyot  
kafedrası professori, i. f. d.

doi: [https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a9](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a9)

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida investitsion muhitning roli va ahamiyati, 2021-2023 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturining mazmuni, O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar markazlashgan moliyalashtirish manbalari, markazlashmagan moliyalashtirish manbalariga oid ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, investitsion jozibadorlikni oshirish, chet el investitsiyalarini jalb qilish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, xalqaro moliya institutlari tomonidan kiritilayotgan investitsiyalar kabi masalalar ko'rilgan va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsion jozibadorlik, xorijiy investitsiyalar, xalqaro savdo, xalqaro moliya institutlari

## ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ В НАШЕЙ СТРАНЕ

**Шадиева Гульнора Мардиевна** -  
Самаркандский институт экономики и сервиса,  
профессор кафедры «Реальная экономика», д.э.н.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены вопросы о роли и значении инвестиционного климата в экономическом развитии страны, содержание инвестиционной программы на 2021-2023 годы, источники централизованного финансирования инвестиций в основной капитал в Республике Узбекистан, децентрализованные источники финансирования, а также были рассмотрены такие вопросы, как реформы в области привлечения инвестиций, осуществляемых международными финансовыми институтами, и даны рекомендации.

**Ключевые слова:** инвестиционная привлекательность, иностранные инвестиции, международная торговля, международные финансовые институты.

## WAYS TO INCREASE THE ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IN OUR COUNTRY

**Shadiyeva Gulnora Mardiyevna**  
Samarkand Institute of Economics and Service,  
professor of the "real economy" department, DSc

**Annotation:** This article describes the role and importance of the investment climate in the economic development of the country, the content of the Investment Program for 2021-2023, sources of centralized financing of investments in fixed assets in the Republic of Uzbekistan, decentralized sources of financing. issues such as reforms in attraction, investments made by international financial institutions were considered and recommendations were made.

**Keywords:** investment attractiveness, foreign investment, international trade, international financial institutions.

**Кирриш.** Har bir mamlakat, avvalo, iqtisodiy rivojlanishga, dunyodagi rivojlangan mamlakatlar qatoriga qo'shilishga harakat qiladi. Shu orqali makro va mikro muhitni rivojlantirishga, yalpi ichki mahsulotni oshirishga intiladi. Bunday keng ko'lamli ishlarni bajarish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ham katta ahamiyat kasb etadi.

2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirishga doir qator maqsad va vazifalar nazarda tutildi. Jumladan, Taraqqiyot strategiyasining 26-maqsadida, mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSH dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralari ko'rish ko'zda tutilgan[1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 21-dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida "Iqtisodiyotimizga shu

yilning o'zida 8 milliard dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar kirib keldi, eksportimiz esa, 19 milliard dollarga yetganligini" e'tirof etib, 2023-yildagi eng ustuvor yo'nalishlardan oltinchisi iqtisodiyotga mahalliy va xorijiy xususiy investitsiyalarni ko'paytirish uchun sharoitlarni yanada yaxshilaymiz deb belgilab berdi[2]. Bu esa xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun qulay investitsiya muhiti va uni jozibadorligini yanada oshirish zaruriyatini ko'rsatadi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyevning investitsion muhitning jozibadorligini oshirish maqsadida qabul qilingan 2018-yil 2-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga ko'ra O'zbekiston Respublikasiga investitsiya kiritgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga ko'p martalik uch yillik viza olish va uning amal qilish muddatini O'zbekiston Respublikasi hududidan chiqish zaruratisiz cheklanmagan miqdorda uzaytirish huquqi berildi.

O'zbekiston Respublikasining "Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida"gi qonunining 9-moddasida, tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo'nalishlaridan biri respublikaga chet el investitsiyalarini jalb qilish vazifasi belgilangan. Aynan shu sababli, O'zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar kiritish, avvalo, ichki manbalarni safarbar etish hisobidan iqtisodiyotimizning muhim tarmoqlarini jadal modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, transport va aloqa sohasini yanada rivojlantirish hamda ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish hal qiluvchi ustuvor yo'nalishlarga aylandi[7] ("Science and Education" Scientific Journal Volume 1 issue 4 July 2020). Bu esa o'rganilayotgan mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Ilmiy maqolada respublikadagi investitsion muhit va uni jozibadorligini oshirish masalalarini atloficha tahlil qilish, shuningdek, induksiya va deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, iqtisodiy statistik kabi usullardan keng foydalanildi.

**Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.** Investitsiya va investitsion jozibadorlikni rivojlantirish masalalariga bag'ishlangan bir qancha monografiyalar, ilmiy to'plamlar, jurnallar va davriy matbuotda ko'plab maqolalar chop etilgan, ularda bu sohada mavjud muammolarning turli jihatlari yoritib bepilgan.

Bugungi kunda mamlakatimizda xorijiy investorlarni himoya qilishning huquqiy mexanizmlarini joriy etish, ularga erkin faoliyat yuritishlari uchun qulay imtiyoz va preferentsiyalar berish, umuman, investitsiyaviy muhitni yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada qabul qilingan bir qator qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investorlar huquqlarini muhofaza qilishni kafolatlashda muhim dasturilamal bo'lmoqda. Investitsion muhit, Respublikamizning iqtisodiyotini rivojlanish darajasini, shuningdek, investitsiya faolligining oshishiga olib keladi. Shuning uchun, chet el investitsiyalarini respublika iqtisodiyotiga jalb etish uchun barcha imkoniyatlar yaratilishi zarurdir.

O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi qonunida "investitsiyalar - investor tomonidan foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar"[5], deb keltirilgan.

Bizga ma'lumki chet el investorlarining faoliyati, asosan daromad olish maqsadida tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan barcha turdagi moddiy va nomoddiy boyliklar va ularga doir huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka

doir huquqlardan tashkil topib, chet el investitsiyalaridan olingan har qanday daromad chet el investitsiyasi deb yuritiladi.

Mamlakatimizda qulay investitsion muhit va uni jozibadorligini muntazam ravishda yaxshilab borishni ta'minlash bugungi kunda dolzarb vazifadir, ya'ni davlat tomonidan investitsiyani jalb qilish uchun qulay investitsiya muhitini yaratish orqali uning jozibadorligini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodchi olimlardan D.G.G'ozibekov, A.V.Vaxabov, Sh.X.Xajibakiyev, M.A.Raimjonova, N.G.Muminov, B.S.Mamatov, Sh.I.Mustafakulov, B.Salimov, I.Xotamov, D.Yu. Xo'jamqulovning ilmiy ishlari investitsion muhit jozibadorligi, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish muammolariga bag'ishlangan.

Chet el va mamlakatimiz olimlarining nazariy izlanish natijalaridan kelib chiqqan holda investitsiya mohiyatini yoritib berish bo'yicha quyidagi xulosaga keldik: investitsiya mohiyatining ilmiy asosi resursli va xarajatli yondashuvlar ularning dastlabki tashkil etilishi mablag'lardan foydalanishni talab etadi, foyda olish maqsadida ijtimoiy soha, tadbirkorlik, ilmiy va boshqa faoliyat turlari obyektlariga tavakkalchiliklar asosida kiritiladigan moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan, intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlardir. Iqtisodchi olimlardan A.N.Asaul o'zining ilmiy asarlarida investitsiya muhiti va uni hisoblash usullarini ta'riflashga e'tibor qaratgan[9].

Ivanov M.Yu.ning ta'kidlashicha: "Investitsiya muhiti – investitsiya jarayonlari kechadigan muhitdir. U mintaqada investitsiya faoliyati sharoitlarini va investitsiya riski darajasini belgilaydigan siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy va boshqa omillar ta'sirida shakllanadi"[10].

T.M.Smaglyukova esa, investitsion jozibadorlikni belgilovchi barcha ko'rsatkichlardan kompleks baxolash talablariga kuprok muvofik keladigan ko'rsatkichlarni ajratib oladi. Uning fikricha, mazkur ko'rsatkichlar investitsion jarayonning barcha tomonlarini aks ettiruvchi investitsion jozibadorlik omillari tarkibiga kiritiladi[11].

Bizning fikrimizcha, investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapital. O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblanadi.

Iqtisodchi-olimlaridan A.Vaxabov, Sh.Xajibakiyev, N.Muminovlarning" (2010) fikricha: "Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhiti kompleks, ko'p qirrali tushuncha bo'lib, milliy qonunchilik, iqtisodiy shart-

sharoitlar (inqiroz, o'sish, stagnatsiya), bojxona rejimi, valyuta siyosati, iqtisodiy o'sish sur'atlari, inflyatsiya sur'atlari, valyuta kursining barqarorligi, tashqi qarzdorlik darajasi kabi ko'rsatkichlarga ega" (2010). Iqtisodchi-olimlardan D. G'ozibekov va T.Qoraliyev" (2007) "Investitsiya muhiti" va "investitsiya iqlimi" tushunchasiga quyidagicha ta'rif berganlar: "Investitsiya iqlimi juda keng ma'noda ishlatiladigan tushuncha bo'lib, investor tomonidan hisobga olinadigan barcha muammo va masalalarni mujassamlashtiradi. Investor tomonidan ma'lum bir mamlakatga kapital ajratishning qulay va noqulay tomonlari belgilanadi, shu bilan bir qatorda, o'z kapitalini kiritmoqchi bo'lgan mamlakat mafkurasi, siyosati, iqtisodiyoti va madaniyatiga katta ahamiyat beriladi".

Iqtisodchi olim Sh.Mustafakulov[16] (2017) investitsion muhit jozibadorligi sifatida qo'yidagi fikrni: "mamlakatning xo'jalik rivojlanish sharoitlarini tavsiflovchi va undagi investitsion faollikning shakllanishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadigan ob'ektiv ijtimoiy-iqtisodiy, tabiiy-geografik va ekologik ko'rsatkichlarning umumiy darajasi" deb talqin qilgan.

Shuningdek, mamlakatimiz olimlari B.Salimov, I.Xotamov[15] "Investitsiyaviy faollik: tahlil va imkoniyatlar" deb nomlangan jamoaviy monografiyasida "milliy iqtisodiyotni har tomonlama rivojlantirishda investitsion jozibadorlikni oshirish bevosita faol investitsiya siyosatini yurgizishni talab etadi" degan fikrlarni qayd etganlar.

Yuqorida nomlari zikr etilgan olimlarning asarlarida investitsion muhit jozibadorligi, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari umumiy tarzda yoritilgan. Ammo innovatsion iqtisodiyot sharoitida investitsion muhit jozibadorligi muammolari kam o'rganilgan va mos ravishda iqtisodiy adabiyotlarda ham kam yoritilgan. Shuning uchun bugungi innovatsion iqtisodiyot jarayonlarida investitsion muhit jozibadorligini rivojlantirishning zamonaviy tendentsiyalarini hisobga olish, uni davlat tomonidan tartibga solish va rivojlantirish yo'nalishlarini aniqlash, shuningdek, milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga yo'naltirilgan masalalar hali to'liq o'rganish lozim deb hisoblaymiz.

Bizning fikrimizcha, investitsion jozibadorlik deganda ijobiy investitsiya muhitini yaratish, jahonda mavjud investitsiya resurslaridan foydalanishni kengaytirish, investorlar uchun qulay muhit yaratish va investitsiya dinamikasi va muhitiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan jami iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy muhit yaratish tushuniladi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Bugungi kunda mamlakatimizda investitsion muhit va uning jozibadorligini yanada oshirish milliy iqtisodiyoti-

mizni rivojlantirishida muhim o'rin egallaydi. Buning asosiy sabablari bo'lib quyidagilar:

birinchidan, ishlab chiqarish quvvatlarining eskirganligi, ularning qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga yoki umuman yangilash kerakligi;

ikkinchidan, sanoat tarmog'i moddiy texnika bazasining pastligi, zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarining mavjudligi;

uchinchidan, mamlakatimizning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyatining mavjudligi;

to'rtinchidan, qishloq hududlariga yaqin joylarda kichik zamonaviy ixcham korxonalarni barpo etish zarurligi;

beshinchidan, respublikamizda ko'plab tayyor mahsulot ishlab chiqarish zarurligi va boshqalar hisoblanadi.

Fikrimizcha, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishdagi asosiy muammolardan biri bu qulay investitsiya muhitining yo'qligi, ya'ni xususiy mulk huquqlarini tartibga solish va himoya qilish sohasining takomillashtirish bo'lib hisoblanadi. Bunday holat iqtisodiy o'sish sur'atlarini pasaytirishi mumkin.

Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda jami 10 milliard dollardan ortiq, jumladan, 8 milliard 100 million dollar to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya o'zlashtirilgan. Buning natijasida 318 ta yirik va 15 mingdan ziyod hududiy loyihalar amalga oshirilib, 273 mingdan ortiq ish o'rni tashkil etilgan. Yangi korxonalar jami 1 milliard dollardan ziyod eksport va 530 million dollarlik import o'rnini to'ldirish imkoniyatiga ega.

Shu bilan bir qatorda, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yuqori texnologiyali va inson kapitaliga faol yo'naltirilmaganligini ham ko'rishimiz mumkin. 2022-yilda 9 milliard 500 million dollardan ziyod to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalarni o'zlashtirish, 282 ta yirik va 9 mingdan ortiq hududiy loyihalar ishga tushirish mo'ljallangan. Eksport hajmini 14 milliard dollarga yetkazish hisob-kitob qilingan[22].

2021-2023-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturida Respublika xomashyo bazasini kengaytirish va uni qayta ishlashni chuqurlashtirish, yuqori qo'shilgan qiymatli raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish hajmlarini oshirish, iqtisodiyot tarmoqlariga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar va yuqori texnologiyalarni keng jalb qilish, investitsiya loyihalarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini ta'minlash, shu asosda yuqori daromadli ish o'rinlarini yaratish hamda hududlarni jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish belgilangan.

Jumladan: 928,3 trln so'm miqdoridagi markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar, 37,5 mlrd AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishini nazarda tutuvchi 2021-

2023-yillarda kapital qo'yimalarni o'zlashtirishning yig'ma prognoz parametrlari;

226 ta yangi ishlab chiqarish quvvati va 34 mingdan ziyod ish o'rni yaratilishini nazarda tutuvchi 2021-yilda yirik ishlab chiqarish obyektlari va quvvatlarini ishga tushirish bo'yicha manzilli dasturi ma'qullangan[3].

Ushbu me'yoriy hujjatga ko'ra qurilish hamda to'qimachilik sohasidagi ishlarni izchil davom ettirish maqsadida, 2021-2023-yillar uchun qiymati 109 trln. so'mdan ziyod 1 ming 277 ta investitsiya loyihasi shakllantirilgan. Shundan deyarli 4,9 mlrd. dollari xorijiy investitsiya va kreditlarga to'g'ri keldi. Bu harakatlar 86 mingga yaqin ish o'rni tashkil etish imkonini yaratadi.

Ushbu dasturga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan boshlab esa xalqaro moliya institutlari kredit mablag'lari hisobiga amalga oshiriladigan loyihalar bo'yicha yangi tizim yaratilib, har bir loyihada belgilangan mablag'larni samarali taqsimlash va natijadorligini ta'minlash maqsadida «Loyiha ofislari» rahbar va xodimlarini malakasi oshirilib, o'qitildi. 2022-2024-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturida 1 trln. so'm miqdoridagi markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalar, jumladan 41,4 mlrd. AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilishi belgilangan. Bu esa o'z navbatida 230 ta yangi ishlab chiqarish quvvati va 50 mingdan ziyod ish o'rnini yaratish imkonini beradi.

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2021-yilda O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga investitsiyalar quyidagicha bo'lgan: asosiy kapitalga o'zlashtirilgan jami investitsiyalar – 245 trln. so'm, markazlashgan investitsiyalar – 44,8 trln. so'm, markazlashmagan investitsiyalar – 200,2 trln. so'm, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar – 104,5 trln. so'm, O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar – 17,3 trln. so'm, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar – 87,2 trln. so'm bo'lgan[8].

Bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotiga 50 dan ortiq davlat investitsiya kiritmoqda. Strategik rivojlanish agentligi rahbari o'rinbosari Aleksey Simning «Iqtisodiy sharh» nashriga bergan intervyusida bergan ma'lumotlariga ko'ra 2021-yilda O'zbekistonga eng ko'p quyidagi davlatlar investitsiya kiritgan:

Xitoy – 2,2 mlrd dollar; Rossiya – 2,1 mlrd dollar; Turkiya – 1,18 mlrd dollar;

Germaniya – 800,7 mln dollar; Janubiy Koreya – 137,4 mln dollar.

2021-yil yakuniga ko'ra, o'zlashtirilgan xorijiy investitsiyalar hajmi 11,1 mlrd dollarni tashkil etib, yillik prognozga nisbatan 113 foizga bajarilgan. Shu jumladan, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 9,8 mlrd dollarga yetgan (2020-yil ko'rsatkichlariga nisbatan o'sish sur'ati 110 foiz).

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) va kreditlar 9 mlrd dollarga yoki prognozga nisbatan 117 foizga, shu jumladan, asosiy kapitalga 2020-yilga nisbatan 124 foizlik o'sish bilan 8,2 mlrd dollar o'zlashtirilgan.

Xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari mablag'larining o'zlashtirilishi 2,1 mlrd dollar yoki yillik prognozning 100 foizini tashkil etgan. 2021-yilda TTXI va kreditlar hisobidan tarmoq korxonalarini tomonidan 3,8 mlrd dollar yoki prognozga nisbatan 103 foizga, hududiy loyihalar bo'yicha esa 5,2 mlrd dollar yoki prognozga nisbatan 130 foizga o'zlashtirilgan. Investitsiyalarning asosiy hajmi energetika sektori, metallurgiya, kimyo sanoati, elektrotexnika mahsulotlari ishlab chiqarish, IT-texnologiyalar, qurilish, farmatsevtika, yengil sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarga to'g'ri kelgan.

2021-yilda O'zbekistonda 10 mlrd dollardan ortiq xorijiy investitsiyalar o'zlashtirilib, 12 mlrd. dollarlik mahsulot va xizmatlar eksport qilingan. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar institutining bergan ma'lumotlariga ko'ra[23]: "2022-yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga kiritilgan 50,1 trln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan. Bu 2021-yilning mos davridagiga nisbatan 26,6 foiz ko'p bo'lib, YaIMning 30,8 foizini tashkil etdi. Investitsiyalarning asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri, kafolatlanmagan xorijiy investitsiyalar va kreditlar (43,2 foiz), korxonalar va aholi mablag'lari (38,3 foiz) hisobidan moliyalashtirildi.

Hukumat kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 38,4 foizga qisqartirilganiga qaramay, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar, boshqa xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan xorijiy kreditlar hajmi 56,5 foizga keskin oshgani tufayli asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 46,2 foizi tashqi resurslar hisobidan moliyalashtirildi. Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi hisobidan investitsiyalarni moliyalashtirish hajmi 74,9 foizga qisqargani bois, davlat resurslarining asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni moliyalashtirishdagi ulushi ham pasayib ketdi. Aholi mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmi 3,4 foizga qisqargan bo'lsada, korxonalar mablag'lari va bank kreditlari hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar hajmining ortishi ichki resurslar asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yirik manbaiga qolishiga sabab bo'ldi."

**Xulosa va takliflar.** Olib borilgan tadqiqotlar natijasida mamlakatimizga xorijiy investitsiyalarning investitsion mablag'larini jalb etish bo'yicha bir qator masala va muammolar mavjudligi aniqlandi.

Birinchiidan, bank kredit tizimini yanada rivojlantirish masalasi;

ikkinchiidan, investorlarning huquqlarining yetarli darajada ximoyalanganligi;

uchinchidan, litsenziya va ruxsat olish tartib-qoidalarining murakabligi.

Yuqorida keltirilgan tahlillarimizdan kelib chiqib, investitsiya muhitini yaxshilash uchun xususiy va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha institutsional asosni shakllantirish lozim deb hisoblaymiz. Xorijiy investitsiyalarni faollashtirish uchun tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish imkonini oshirish lozim. Biznesning rivojlani-shiga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni aniqlash va bartaraf etish bo'yicha astoydil kurashish kerak. Natijada investitsion jozibadorlikni oshirish va bar-qaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash mumkin. Davlat-xususiy sheriklik va loyihalarni moliyalashtirish vo-

sitalarini rivojlantirish orqali esa investitsion fao-liyatni rag'batlantirish, shaffoflikni maksimal dara-jada ta'minlash va xorijiy investorlarning murojaat-lari va so'rovlari bilan ishlashni tashkil etish lozim deb hisoblaymiz.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, rivojlangan mamlakatlarning tajribasi, mamlakatning investit-sion muhitini yaxshilash borasida qabul qilgan qonunlari, qarorlarini o'rganish, kerakli jihatlarni O'zbekiston sharoitiga tadbqiq etish muhim masala-lardan hisoblanadi. Ushbu taklif va tavsiyalarining amaliyotga tadbqiq etilishi respublikamiz iqtisodiyoti-ga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni kengayti-rish imkonini beradi.

**Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-dekabrda Oliy majlisga murojaatnomasi
3. O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston Respublikasining 2021-2023-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4937 son qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-avgustdagi PF-6042-son va "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida"gi farmoni
5. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 14-dekabrda "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ №598 son qonuni.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida 28.01.2022 yildagi PF-60-son
7. "Science and Education" Scientific Journal Volume 1 issue 4 July 2020
8. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasining rasmiy sayti
9. Асаул А.Н. Формирование инвестиционного климата (опыт Петербургского региона). // «Экономика Украины». – Киев, 2002, № 4.
10. Иванов М.Ю. Понятие инвестиционного климата и его влияние на эффективность инвестиционного воздействия партнеров. – М.: Российская академия государственной службы при Президенте РФ, 1996
11. Смаглокова ТМ. Общие подходы к формированию региональной инвестиционной политики. // Современные проблемы науки. - 2014. № 1.
12. Vahabov A.V., Xajibakiev Sh.X., Muminov N.G "Xorijiy investitsiyalar" o'quv qo'llanma – T.: Moliya, 2010. –153 b.
13. G'ozibekov D.G', Nosirov E.I. O'zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalar investitsiyalarini jalb qilish. Risola. – T.: Iqtisod-moliya, 2007. – 92 b.
14. Вахабов А.В., Таджибаева Д.А., Хажикаев Ш.Х. Жаҳон иқтисодиёти ва халқаро иқтисодий муносабатлар: дарслик. – Т.: Baktria press, 2015. -584 б.
15. Salimov B., Xotamov I. Investitsiyaviy faollik: tahlil va imkoniyatlar. TDIUkoll.monogr. – T.: Fan va texnologiya, 2019, 93-b.
16. Mustafakulov Sh.I. Investitsion muhit jozibadorligi. – T.: Baktria press, 2017 – 18-b.
17. Исаяев Ф. Ресурс солиқлари таҳлилини ташкил этиш методикаси: [https://doi.org/10.55439/ECED/vol23\\_iss5/a30](https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss5/a30) //Экономика и образование. – 2022. – Т. 23. – №. 5. – С. 171-176.
18. Isayev F. Мол-мулкни солиққа тортишни такомиллаштириш. //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar. – 2021. – №. 6. – С. 326-333.
19. Isaev F.I. Tax Accounting: Theory and Practice //International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. – 2022. – Т. 9. – №. 12. – С. 30-38.
20. Ikromovich, Isayev Fakhridin. "Concept of economic analysis and its structural components." International Journal of Marketing and Technology 7.12 (2017): 1-13.
21. Ikromovich, Isayev Fakhridin. "Analysis of the profit tax and its improvement." International Journal of Research in Social Sciences 7.12 (2017): 74-85.
22. <https://review.uz/oz/post/v-2022-godu-planiruetsya-privlech-95-mlrd-pryamx-inostrannx-investitsiy>
23. <https://ifmr.uz/infographics#mob-menu2>



**MAMLAKAT IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI YAXSHILASH MASALALARI**

**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li -**  
Toshkent moliya instituti Baholash ishi va investitsiyalar kafedrasida o'qituvchisi

[https://doi.org/10.55439/ECED/vol24\\_iss1/a10](https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss1/a10)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada investitsion jozibadorlikning mazmun-mohiyati, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlikni oshirish borasidagi iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalari o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatimiz investitsion jozibadorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilingan bo'lib, mamlakatning ishbilarmonlik muhiti va investitsion risklar darajasini baholovchi, xalqaro darajada tan olingan ko'rsatkichlar haqida to'xtalib o'tilgan. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda investitsion jozibadorlikni oshirish bo'yicha ilmiy xulosa va tavsiyalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** investitsiya, investitsiya muhiti, investitsion jozibadorlik, Beri – (Biznes muhiti xavf-xatarlari haqida ma'lumot) indeksi, indikator, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya, retsipient, donor, biznes, segment, progressiya, investitsiya salohiyati.